2-ŞÖBA · ÇORVAÇILIK VA HAYVONLAR MAHSULDORLIGI

UDK: 636.31.

QORAQALPOĞISTON RESPUBLIKASI TABIIY-IQLIM ŞAROITIDA BAYAT ZOTLI SOVLIQLARNI TURLI MUDDATLARDA QOÇIRIŞNING TIRIK VAZNI VA EKSTERYER KÖRSATKIÇLARIGA TA'SIRI

U.B.Joldasova – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

1-bosqiç tayanç doktoranti

Sh.N.Madraximov, ilmiy rahbar, q.x.f.d., dotsent. Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, çorvaçilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

e-mail: shodlikmadrahimov1963@gmail.com,

ORCID: 0009-0005-9233-0748

Science ID: DXR-1025-0006

DOI 10.66073/ReFocus-Conf/1311086

NASHR SANASI 13.11.2026 · Nukus

SAHIFALAR 428–431

NASHR HAMKORI Research Focus

ISSN 2181-3833

IQTIBOS UÇUN Joldasova U.B., Madraximov Sh.N. Qoraqalpoğiston Respublikasi tabiiy-iqlim şaroitida Bayat zotli sovliqlarni turli muddatlarda qoçirişning tirik vazni va eksteryer körsatkiçlariga ta'siri // Veterinariya meditsinasi va çorvaçilikdagi dolzarb muammolar va ularning yeçimlari: xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari. – Nukus, 2026. – B. 428–431. – DOI: 10.66073/ReFocus-Conf/1311086

ANNOTATSIYA Maqolada Qoraqalpoğiston Respublikasining tabiiy-iqlim şaroitida erta va keç muddatlarda qoçirilgan Bayat zotli sovliqlarning tirik vazni va eksteryer körsatkiçlari tahlil qilingan. Tadqiqotda har bir guruhga 50 boşdan sovliq kiritilib, ularning tirik vazni, yağrin va sarği balandligi, tanasining qiya uzunligi, kökrak kengligi va çuqurligi, kökrak hamda poçaning aylanasi örganilgan. Natijalar erta qoçirilgan sovliqlar guruhida barça örganilgan körsatkiçlar keç qoçirilgan guruhga nisbatan yuqoriroq bölganini körsatdi. Olingan ma'lumotlar qoçiriş muddatlarini tanlaşda sovliqlarning tana rivojlanişi va eksteryer xususiyatlarini hisobga oliş muhimligini körsatadi.

KALIT SÖZLAR Bayat zoti, sovliqlar, qoçiriş muddati, tirik vazn, eksteryer, tana ölçamlari, qöyçilik, Qoraqalpoğiston Respublikasi.

KEYWORDS Bayat breed, ewes, breeding time, live weight, conformation, body measurements, sheep farming, Republic of Karakalpakstan.

Аннотация. В стате проанализированы живая масса и экстерьерные показатели овец породы Баят, осеменённых в ранние и поздние сроки в природно-климатических условиуах Республики Каракалпакстан. В исследование включили по 50 голов овец в каждую группу. Изучены живая масса, высота в холке и крестце, косаya длина туловища, ширина и глубина груди, обхват груди и пясти. Результаты показали, что по всем изученным показателям овцы группы раннего осеменения имели более высокие значения по сравнению с группой позднего осеменения. Полученные данные свидетелствуют о важности учёта развития телосложения и экстерьерных особенностей овец при выборе сроков осеменения.

Клуичевые слова: порода Баят, овцы, сроки осеменения, живая масса, экстрьер, промеры тела, овцеводство, Республика Каракалпакстан.

Abstract. This article analyzes the live weight and conformation traits of Bayat sheep bred at early and late periods under the natural and climatic conditions of the Republic of Karakalpakstan. The study included 50 ewes in each group. The parameters examined were live weight, height at the withers and rump, oblique body length, chest width and depth, chest girth, and cannon bone circumference. The results showed that the sheep in the early breeding group had higher values for all the studied parameters than those in the late breeding group. The findings highlight the importance of considering body development and conformation traits when determining the breeding time for ewes.

KIRIŞ. Qöyçilik çorvaçilikning muhim tarmoqlaridan biri bölib, aholini göşt, jun va boşqa çorvaçilik mahsulotlari bilan ta'minlaşda katta ahamiyatga ega. Qöyçilik samaradorligi köp jihatdan hayvonlarning irsiy xususiyatlari, ösiş va rivojlaniş darajasi, oziqlantiriş va saqlaş şaroitlari hamda naslçilik işlarining töğri taşkil etilişiga boğliq.

Qoraqalpoğiston Respublikasining tabiiy-iqlim şaroitida qöylarni parvarişlaş jarayonida mavsumiy harorat özgarişlari, ozuqa bazasi va yaylov şaroitlarini hisobga oliş talab etiladi. Şu sababli sovliqlarni qoçiriş muddatlarini töğri belgilaş naslçilik işlarining muhim taşkiliy masalalaridan hisoblanadi.

Sovliqlarning tirik vazni va eksteryer körsatkiçlari ularning tana rivojlanişini baholaşda muhim morfologik belgilar sanaladi. Tirik vazn hayvonning umumiy rivojlaniş darajasini ifodalasa, yağrin va dumğaza balandligi, tananing qiya uzunligi, kökrak kengligi va çuqurligi kabi körsatkiçlar tana tuzilişining öziga xos xususiyatlarini tavsiflaydi.

Qoçiriş muddatlari bilan sovliqlarning tana körsatkiçlari örtasidagi farqlarni örganiş qöylarni guruhlaş, naslçilik işlarini rejalaştiriş va mahalliy şaroitlarga mos parvarişlaş texnologiyalarini takomillaştiriş uçun amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqotning maqsadi. Qoraqalpoğiston Respublikasi tabiiy-iqlim şaroitida turli muddatlarda qoçirilgan Bayat zotli sovliqlarning tirik vazni va eksteryer körsatkiçlarini qiyosiy tahlil qilişdan iborat.

Tadqiqot obyekti va uslubi. Tadqiqotlar 2026-yilda Qoraqalpoğiston Respublikasi, Toxtaköpir tumanidagi "Jetovator" ma'suliyati çeklangan jamiyati qöyçilik fermasida olib borildi.

Tajriba uçun qöylarning kelib çiqişi va ularning qaysi yoşga mansubligi xorijdan keltirilgan hujjatlar asosida tanlab olindi. Tajriba uçun "Jetovator" qöyçilik fermasida suruvlarda öxşaşlik belgilari böyiça yoşi, tirik vazni va eksteryerini hisobga olgan holda 100 boş sovliqlar tanlab olindi. Tadqiqotda Bayat zotli sovliqlar ikki guruhga ajratildi. I guruhga erta qoçirilgan 50 boş, II guruhga esa keç qoçirilgan 50 boş sovliqlar taşkil etgan.

Tajribadagi sovliqlarning tirik vazni (kg) aniqlaş uçun ertalab oziqlantirişga qadar har biri alohida elektron tarozida tortildi va ularni tana ölçamlari (yağrin va sarği balandili, tananing qiya uçunligi, kökrak kengligi, kökrak çuqurligi, kökrak aylanasi va poça aylanasi) ham zootexniyada qabul qilingan usullarda aniqlandi. Olingan ma'lumotlar Microsoft Excel 2010 kompyuter dasturi yordamida A.M.Yakovenko, T.I.Antonenko, M.I.Selionova (2013) usulida qayta biometrik işlov berildi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Yuqori mahsuldor göştdor suruvlar yaratiş va ularni takomillaştirişda mahsuldorlik xususiyatlariga ta'sir etuvçi omillarni örganiş va seleksiya işlari jarayonida uşbu omillarni hisobga olgan holda işni taşkil etiş muhim

ahamiyat kasb etadi. Bu omillarga sovliqlarning irsiy belgilaridan biri bu, uning ösiş va rivojlaniş körsatkiçlari mahsuldorligi hisoblanadi.

Bayat zotli sovliqlarning tirik vazni va eksteryer körsatkiçlari böyiça olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadvalda. Tajribadagi turli muddatlarda qoçirilgan Bayat zotli sovliqlarning tana ölçamlari, sm

Körsatkiçlar	Erta qoçirilgan		Keç qoçirilgan	
	Guruh, (n=50)			
	I		II	
	$\overline{X}$±S $\overline{x}$	C_V, %	$\overline{X}$±S $\overline{x}$	C_V, %
Tirik vazni, kg	51,86+0,45	6,20	51,44+0,43	5,85
Yağrin balandligi	61,96+0,23	2,67	61,48+0,17	2,01
Sağri balandligi	63,32+0,24	2,66	62,72+0,17	1,91
Tananing qiya uzunligi	71,42+0,38	3,73	71,02+0,37	3,69
Kökrak kengligi	24,20+0,21	6,08	23,98+0,20	5,99
Kökrak çuqurligi	32,82+0,16	3,41	32,24+0,20	4,37
Kökrak aylanasi	95,72+0,29	2,14	94,28+0,46	3,46
Poça aylanasi	9,38+0,06	4,38	9,35+0,07	4,98

Izoh: jadvaldagi raqamlar taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlar asosida keltirildi.

1-jadval ma’lumotlaridan körinib turibdiki, erta qoçirilgan sovliqlarning tirik vazni örtaça 51,86 kg ni, keç qoçirilgan sovliqlarda esa 51,44 kg ni taşkil etdi. Erta qoçirilgan sovliqlar keç qoçirilgan sovliklarga nisabatan tirik vazni 0,42 kg yoki 0,82% ga taşkil qildi.

Tana ölçamlarini taqqoslaş ham erta qoçirilgan sovliqlar guruhida nisbatan yuqori körsatkiçlar qayd etilganini körsatdi. Jumladan, yağrin balandligi 61,96 sm ni taşkil qilib 0,45 sm ga (0,73%), sarği balandligi mos ravişda 63,32 smni taşkil qilib 0,60 sm ga (0,95%), tananing qiya uzunligi 0,40 sm ga (0,56%), kökrak kengligi 0,22 sm ga (0,92%), kökrak çuqurligi 0,58 sm ga (1,79%), kökrak aylanasi 1,44 sm ga (1,53%) va poyça aylanasi 0,03 sm ga (0,3%) yuqori bölganligi aniqlandi.

Umuman olganda, taqdim etilgan ma’lumotlar erta qoçirilgan sovliqlar guruhida tirik vazn va barça örganilgan eksteryer körsatkiçlari son jihatidan yuqoriroq bölganini körsatadi. Biroq bu natijalar qoçiriş muddati mazkur farqlarning bevosita sababi ekanligini isbotlamaydi. Buning uçun sovliqlarning

yoşi, tana holati, oziqlantirilişi, saqlaş şaroiti va qoçirişdan oldingi boşlanğiç körsatkiçlari ham hisobga olinişi lozim.

Guruhlar örtasidagi özgaruvçanlik koeffitsientlari (Cv=1,91–6,20%) oraliğida böldi. Bu tadqiqotdagi har bir belgi böyiça individual özgaruvçanlik darajasini tavsiflaydi. Tirik vaznning özgaruvçanlik koeffitsienti erta qoçirilgan guruhda Cv=6,20%, keç qoçirilgan guruhda Cv=5,85% ga teng böldi. Kökrak aylanasi böyiça esa uşbu qiymatlar mos ravişda Cv=2,14 va 3,46% ni taşkil qildi. **Xulosa.** Qoraqalpoğiston Respublikasining Orolböyi keskin kontinental va qurğoqçil tabiiy-iqlim şaroitida Möğuliston genofondiga mansub Bayat zotli

https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/1311086

sovliqlarning reproduktiv xususiyatlari va tana tuzilişi körsatkiçlari ularni qoçiriş muddatlariga bevosita boğliq ekanligi aniqlandi. Erta muddatlarda (yaylov ozuqalari töyimliligini saqlangan davrda) qoçirilgan I guruh sovliqlari öz tengqurlari keç qoçirilgan II guruhga nisbatan barça xöjalik-foydali va eksterer belgilari böyiça sezilarli farq aniqlanmadi. Bu esa ularni turli muddatlarda qoçirişga imkoniyati yaratilgandan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Şayusupov B., Şakirov K. External çaracteristics and live weight of fleşy and woolly şeep breed of Uzbekistan // BIO Web of Conferences. 2023. Vol. 65. 02007. DOI: 10.1051/bioconf/20236502007.
2. Bobokulov N., Khatamov A., Abduzoirova D., Yusupov A., Urimbetov A., Olmasov B. Meat productivity of şeep in Uzbekistan and its relationşip with different factors // E3S Web of Conferences. 2021. Vol. 258. 04020. DOI: 10.1051/e3sconf/202125804020.
3. Ruzibaev N.R., Şayusupov B.B., Aibazov A.-M.M. Productive traits of meat-wool şeep breed in Uzbekistan // Agricultural Journal. 2023. Vol. 16, No. 3. DOI: 10.48612/FARC/2687-1254/010.3.16.2023.
4. Podkoritov N.A., Podkoritov A.A. Vliyaniye ranney sluçki na eksterernie osobennosti myasoşerstnix ovtsematok // Innovatsii i prodovolstvennaya bezopasnost. 2022. № 4 (38). S. 100–105. DOI: 10.31677/2311-0651-2022-38-4-100-105.
5. Ptáček M., Duçáček J., Stádník L., Fantová M. Effects of age and nutritional status at mating on the reproductive and productive traits in Suffolk şeep kept under permanent outdoor management system // Czeç Journal of Animal Science. 2017. Vol. 62, No. 5. P. 211–218. DOI: 10.17221/63/2016-CJAS.
6. Cumming I.A. Relationşips in the şeep of ovulation rate with liveweight, breed, season and plane of nutrition // Australian Journal of Experimental Agriculture and Animal Husbandry. 1977. Vol. 17, No. 85. P. 234–241.
7. FAO. Şeep breeds of Mongolia (Bajad/Bayad şeep). URL: https://www.fao.org/4/u4900t/u4900T07.htm
8. Afolayan R.A., Adeyinka I.A., Lakpini C.A.M. The estimation of live weight from body measurements in Yankasa şeep // Czeç Journal of Animal Science. 2006. Vol. 51, No. 8.
9. Djaout A., El-bouyahiaoui R., Belkheir B., Moulla F., Mansouri H., Benidir M. Prediction of the body weight of Algerian Tazegzawt şeep breed from body measurements // Iraqi Journal of Agricultural Sciences. 2022. Vol. 53, No. 5. P. 1138–1144.
10. Kader Esen V., Elmacı C. The Estimation of Live Weight from Body Measurements in Different Meat-Type Lambs // Journal of Agricultural Sciences. 2021. Vol. 27, No. 4. P. 469–475